

№3 Lobaratoriya mashg'uloti.

Mavzu: O'rta Osiyaning arab istilosidan so'ng xonliklargacha bo'lgan davri manbalari. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan yodgorliklari" asari tahlili.

I.Ishdan maqsad:

- a) Beruniyning "Osor ul-boqiya" ya'ni "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorlik" asarini ilmiy tahlil qilish;
- b) Olingan bilimlarni mustahkamlash;
- c) Vatanparvarlik ruhini oshirish
- d)

2. Mashg'ulot uchun kerakli hujjatlar:

- a) Beruniyning "Osor ul-boqiya" kitobi;
- b) Daftar, ruchka;
- c) Rangli ruchka.

3. Ish yuzasidan foydalangan adabiyotlar:

- a) Beruniyning "Osor ul-boqiya" yoki "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorlik" - Toshkent 1968
- b) I.A.Karimov "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin" 2- jild Toshkent
- c) Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'at at-turk" – Toshkent 1963

4. Ish yuzasidan bajaradigan topshiriqlar

- a) Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari yozuvini o'rganish
- b) manbaning ichki va tashqi tahlili

5. nazariy tushuncha.

Tayanch iboralar: rumiyalar, arablar, johiliyat davri, bayramlar, bozorlar, Navro'z, Hayit.

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Osor ul-boqiya" asarida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Ushbu asar 1000-yili Jurjon shahrida yozib tamomlangan. Unda qadimgi O'rta Osiyo, Yunon, Eron, Hind, Nasroniy, Yahudiy va boshqa xalqlarning islomiyatgacha bo'lgan tarixi, urf-odatlar, bayramlari va asosan, vaqtni hisoblash, taqvim-xronologiya to'grisida mukammal ma'lumot beradi. Masalan arablarning oylarini, ularning nomlarini kelib chiqish sabablarini, eronliklarning Navro'z bayramini o'tkazishlari haqida yozilgan.

Manbaning tahlilida asosan uni ichki va tashqi tahliliga e'tibor berish kerak. Manbaning tashqi tahlilida kitobning siyohiga, bezaklariga, qog'ozlariga va uning qaysi yozuv turida yozilganiga katta e'tibor berishi kerak. Tashqi tahlilning eng asosiy talablaridan biri bu manbaning muallifini, yaratilgan sanasini aniqlashdan iboratdir.

Ichki tahlilida esa manbaning ichida keltirilgan ma'lumotlarni o'rganib, ularni tarixiy haqiqatga mos kelish-kelmasligini aniqlash maqsadida boshqa manbalarga taqqoslab qiyosiy tahlil o'tkazish lozim.